

**GLOBALLASHUV VA TARIXIY RIVOJLANISH ZAMONAVIY  
PARADIGMALAR SHAKLLANISHI**

**Nosirov Rashod Adilovich**

*Toshkent davlat transport universiteti*

*« Xalqaro Ommaviy huquq » kafedrası professori, t.f.d.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada globallashuv tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ta’siri va sotsiologiya fanidagi yangi paradigmalar shakllanishidagi o‘rni tarixiy rivojlanish kontekstida tahlil etiladi. Global jarayonlarning ijobiy va salbiy tomonlari, turli fan sohalariidagi yondashuvlar, ayniqsa sotsiologik qarashlar doirasida o‘rganiladi. Maqolada globallashuvning ijtimoiy tartibotga, insoniy munosabatlarga va universal qadriyatlarga ta’siri, shuningdek yangi paradigmalar shakllanishi bilan bog‘liq muammolar muhokama etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *globallashuv, sotsiologiya, yangi paradigma, universallasuv, integratsiya, ijtimoiy muammolar, risk jamiyati, transmilliy jarayonlar.*

**Abstract.** *This article examines the meaning of globalization, its impact on social life, and its role in shaping new paradigms in sociology in the context of historical development. The study discusses both the positive and negative dimensions of global processes and compares approaches from different disciplines, with particular attention to sociological perspectives. It also addresses how globalization influences social order, human relations, and universal values, and how these transformations stimulate the emergence of new paradigms in contemporary sociology.*

**Keywords:** *globalization, sociology, new paradigm, universalization, integration, social problems, risk society, transnational processes.*

**Kirish**

Har bir tarixiy davrning mazmun-mohiyatini va rivojlanish qonuniyatlarini anglash uchun, avvalo, ushbu davrga xos asosiy jarayonlar va tushunchalarni aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda “globallashuv” tushunchasi hayotimizning barcha sohalari — ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalarda keng qo‘llanilmoqda va ko‘plab siyosatchilar, faylasuflar hamda sotsiolog olimlar diqqat markazida turibdi.

Insoniyat tarixida ilgari kuzatilmagan darajada tez va chuqur o‘zgarishlar yuz berayotgan davrda yashamoqdamiz. Ba’zilar bu davrni “yüksak texnologiyalar zamonı”, boshqalar “tafakkur asrı”, yana boshqalar esa “yalpi axborotlashuv davrı” deb ta’riflashmoqda. Bunday sharoitda quyidagi savollar dolzarb ahamiyat kasb etadi: globallashuv nima, unga

sotsiologik yondashuv nima bilan farq qiladi va “globallashuv” tushunchasi qanday mazmunga ega?

### **1. Globallashuv tushunchasining tarixiy ildizlari va ilmiy muomalaga kirishi**

Globallashuvni faqat oxirgi o‘nyilliklar fenomeni sifatida qarash to‘liq tasavvur bermaydi: uning tarixiy ildizlari savdo yo‘llari, sanoat inqiloblari, kolonial tizimning transformatsiyasi, XX asrdagi transport va aloqa vositalarining tezkor rivojlanishi bilan bog‘liq. Biroq mazkur jarayonni yagona tushuncha sifatida nomlash va ilmiy doirada muammoli ob‘ektga aylantirish, asosan, XX asr ikkinchi yarmidagi kommunikatsiya va bozor integratsiyasi kuchayishi bilan tezlashgan.

Globallashuv — dunyo miqyosida yagona global tizimning shakllanishi jarayoni. Bu atama turli fan sohalarida turlicha izohlanadi. Jumladan, M. Maklyuhan 1960 yilda “global qishloq” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, yangi kommunikatsiya vositalari orqali dunyo hajmining “qisqarishi”ni nazarda tutgan [1].

Globallashuvning dolzarbligi 1990-yillardan boshlangan bo‘lsa-da, 1960–1970 yillardayoq sotsiologlar tomonidan muhokama qilina boshlangan. Aksariyat olimlar globallashuv atamasi ilk bor amerikalik iqtisodchi T. Levitt tomonidan 1983 yildagi “The Globalization of Markets” maqolasida qo‘llanganini ta’kidlaydilar [2, 44-sahifa]. Globallashuv — bu iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, huquq, mehnat bozori, kommunikatsiyalar va axborot tizimlaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. U global mehnat taqsimoti, kapitalning sayyoraviy harakati, iqtisodiy standartlashuv va madaniy yaqinlashuv bilan tavsiflanadi.

So‘nggi o‘ttiz-qirq yilda globallashuv sotsiologiya fanida alohida tahliliy yo‘nalish sifatida shakllandi. Ushbu jarayonning tahlilida global jamiyat nazariyalari, protsessual konsepsiyalar va tarixiy rivojlanish modellari yuzaga keldi. Globallashuv davlatlar chegaralari kesib o‘tilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar, ommaviy migratsiya, madaniyatlarning yaqinlashuvi, axborot oqimining global erkin harakati kabi omillarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Internet texnologiyalari, telekommunikatsiya vositalari va transmilliy kompaniyalar faoliyati globallashuvning tezlashuviga turtki berdi. Sotsiologiyada globallashuv nafaqat ijtimoiy voqelikning tahlili ob‘ekti, balki yangi nazariy yondashuvlarning manbai ham hisoblanadi.

Globallashuvning ijobiy tomonlari sifatida ilmiy va texnologik yutuqlarning tez tarqalishi, o‘zaro tushunishning kuchayishi va dunyoqarash hamda hayot tarzining muayyan darajada universallashtirishini qayd etish mumkin. Salbiy jihatlari esa milliy madaniyat va qadriyatlarining susayishi, madaniy asimmetriya, individualizmning o‘sishi va jamoaviylik mexanizmlarining zaiflashuvi bilan bog‘liq.

E. Giddens ta’kidlaganidek, globallashuv insonlarni “yagona dunyo” o‘zaro ta’sir tizimiga kiritadi: bir jamiyatdagi qarorlar va amallar boshqa jamiyatlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3]. Shu nuqtai nazardan ekologik muammolar (iqlim o‘zgarishi, ozon qatlaminin buzilishi), demografik bosim, pandemiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya va resurslar tanqisligi kabi masalalar global miqyosda hamkorlikni talab qiladi.

U. Bek tomonidan ishlab chiqilgan “risk jamiyati” konsepsiyasiga ko‘ra, globallashuv nafaqat imkoniyat, balki xavflar manbai hamdir; zamonaviy jamiyatda xavflar transmilliy xarakter kasb etib, an’anaviy boshqaruv mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi [4].

“Paradigma” tushunchasi ilmiy muomalaga amerikalik faylasuf Tomas Kun tomonidan kiritilgan bo‘lib, u “Ilmiy inqiloblar tuzilishi” (1962) asarida paradigmani ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan va muayyan davr uchun xos bo‘lgan nazariy model sifatida talqin qilgan [5, 21-sahifa]. Sotsiologiyada, umumiy qilib aytganda, quyidagi asosiy paradigmalarda keng tarqalgan:

- Pozitivistik paradigma — ijtimoiy hayotni tabiiy jarayon sifatida tahlil etadi;
- Psixoanalitik paradigma — ongsiz jarayonlar va shaxsiy motivlar orqali tushuntiradi;
- Funktsional paradigma — jamiyatni yaxlit tizim sifatida ko‘radi.

Globallashuvning ijtimoiy tartibotga ta’siri, transmilliy jamiyatlar va virtual hamjamiyatlar shakllanishi mazkur paradigmalarning yangilanishi va transformatsiyasini taqozo qilmoqda. Xususan, “mobillik sotsiologiyasi” kabi yangi konsepsiyalar paydo bo‘lib, jismoniy va raqamli harakatlanish, kommunikatsiya va oqimlar (flow)ni jamiyatni tushunishda markaziy kategoriyalar sifatida ko‘rib chiqmoqda [6].

Globallashuvning ta’siri, ayniqsa, yoshlar qatlamida madaniy iste’mol standartlari, axborot manbalari va identifikatsiya shakllarining o‘zgarishi orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Milliy qadriyatlardan biri hisoblangan jamoaviylik (oila, mahalla, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishga asoslangan dunyoqarash) ba’zi hollarda individualizm, shaxsiy erkinlik va mustaqillikni ustuvor deb bilish tendensiyalari bilan raqobatga kiradi.

Bu tendensiya ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, chet el mediiasi hamda internet orqali tarqalayotgan global madaniy mahsulotlar ta’sirida kuchayishi mumkin. Shuningdek, milliy o‘zlikni anglashga doir ta’lim-tarbiya ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilmagan sharoitlarda madaniy unifikatsiya xavfi ortadi. Bu esa rang-baranglikning kamayishi, turli madaniy ifoda shakllarining susayishi va jamiyatlarning yagona — ko‘proq g‘arbcha — shablonga moslashuvi bilan izohlanadi.

Bunday o‘zgarishlar ijtimoiy munosabatlarga ham ta’sir o‘tkazadi: mahalliy an’anaviy institutlar (mahalla, keksa-kattalarga ehtirom, jamoa o‘rtasidagi hamjihatlik)ning tarkibiy

vazifalari qayta taqsimlanishi mumkin. Shu ma’noda, globallashuvning mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga ta’sirini empirik tadqiqotlar orqali o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

**Xulosa:** Globallashuv — bir vaqtning o‘zida ham integratsiya, ham differentsiatsiya jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy tartibotning yangi shakllarini, universal qadriyatlar va kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytiradi, ayni paytda yangi xavf va muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Sotsiologiya bilim tizimi sifatida ushbu o‘zgarishlarga munosabat bildirishi, ularni tarixiy rivojlanish mantig‘i bilan bog‘lab tahlil qilishi va nazariy yangilanishlarni ishlab chiqishi zarur. Shu bois, globallashuv va sotsiologiyaning o‘zaro bog‘liqligi mustahkam bo‘lib bormoqda va bu aloqalar sotsiologiyada yangi paradigmalarni shakllanishiga zamin yaratadi.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Maklyuen M. Galaktika Gutenberga: Stanovlenie cheloveka pechatayushogo. — M.: Progress, 2005. — 367 s.
2. Levitt T. The Globalization of Markets // Harvard Business Review. — 1983. — Vol. 61(3). — P. 92–102.
3. Giddens E. Uskolzayushiy mir: kak globalizatsiya menyaet nashu jizn. — M.: Ves mir, 2004. — 120 s.
4. Bek U. Obshchestvo riska. Na puti k drugomu modernu. — M.: Progress-Traditsiya, 2000.
5. Xaydarov A., Toshkulov X. Globallashuv sotsiologiyasi. — Toshkent: Vneshinvestprom, 2023. — 224 b.
6. Urri Dj. Sotsiologiya za predelami obshchestv: vidy mobilnosti dlya XXI stoletiya. — M.: Izdatelskiy dom NIU VShE, 2012. — 338 s.